

Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2024-yil 23-noyabr, shanba,
136 (24.013)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz

KUN HIKMATI

Qonun bo‘sh bo‘lsa, gunoh jazolanmaydi. Jazolanmagan gunoh esa yana takrorlanadi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI A’ZOLARINI TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024-yil 21-noyabrdagi tegishli qarorlari bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a’zoligiga nomzodlar ma’qullandi.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasiga muvofiq:

Achilbay Jumaniyazovich Ramatov – O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari;

Djamshid Anvarovich Kuchkarov – O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vaziri;

Jamshid Abduxakimovich Xodjayev – O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari;

Zulayxo Baxriddinovna Maxkamova – O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi;

Laziz Shavkatovich Kudratov – O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri;

Botir Erkinovich Zaxidov – O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri;

Ibroxim Yulchiyevich Abdurahmonov – O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vaziri;

Shavkat Raximovich Xamrayev – O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri;

Sherzod Saidjanovich Xidoyatov – O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri;

Ilxam Rustamovich Maxkamov – O‘zbekiston Respublikasi transport vaziri;

Jo‘rabek Tursunpulatovich Mirzamahmudov – O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri;

Bobir Farxadovich Islamov – O‘zbekiston Respublikasi tog‘-kon sanoati va geologiya vaziri;

Sherzod Xotamovich Shermatov – O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vaziri;

Aziz Abdukaxarovich Abduxakimov – O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri;

Asilbek Anvarovich Xudayarov – O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vaziri;

Xilola Uktamovna Umarova – O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri;

Kongratbay Avezimbetovich Sharipov – O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri;

Adxam Ilxamovich Ikramov – O‘zbekiston Respublikasi sport vaziri;

Ozodbek Axmadovich Nazarbekov – O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri;

Akbar Djurabayevich Tashkulov – O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri;

Baxtiyor Odilovich Saidov – O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri;

Abdulla Xamidullayevich Kuldashev – O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vaziri;

Po‘lat Razzaqovich Bobojonov – O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri;

Baxodir Nizamovich Kurbanov – O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a’zolari etib tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 114-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o‘z lavozimi bo‘yicha kiradi.

2. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.MIRZIYOYEV

2024-yil 21-noyabr

Munosabat

Yangi parlamentning eskicha ishlashga haqi yo‘q

Senatorlarning zimmasida xalq ishonchini oqlash, Vatan oldidagi mas’uliyatni chuqur his qilish, Prezident tomonidan ilgari surilgan yangi parlament a’zolari burchi haqidagi mulohazalarni idrok etishdek zalvorli vazifalar bor.

Yangi O‘zbekiston yangi parlamentining eskicha ishlashga haqi yo‘q. Bir haqiqatni unutmaslik shart: faoliyatimiz, avvalo, xalqimiz nazoratida bo‘ladi.

Jahon tajribasida ham parlamentning o‘rni va ahamiyati tobora oshib borayotgan bir davrda yashayapmiz. Senatorlarning befarq, loqayd bo‘lishini zamon ko‘tarmaydi. Urra-urrachilik davri o‘tib ketdi, xalqimizning huquqiy savodxonligi oshgan.

2016-yilda boshlangan ochiqlik siyosati, demokratiya, so‘z erkinligi aholining bilim va ko‘nikmalarini, qarashlarini butunlay o‘zgartirib yubordi.

O‘zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida taraqqiyotning ortga qaytmaydigan mustahkam va ishonchli yo‘liga tushib olgan. Xalq bilan muloqotning jahon tajribasida uchramaydigan mutlaqo yangi uslublari ishlab chiqilgan.

Prezidentimiz majlisida ta’kidlaganidek: "O‘zingiz tasavvur qiling, 37 millionlik xalqdan faqatgina 65 nafar insonga senator bo‘lishdek yuksak sharaf va baxt nasib etdi. Bu ulkan ishonch va mas’uliyatning qadriga yetish, uni halol va sodiq xizmat bilan oqlash barchamizning muqaddas burchimizdir".

65 nafar Senat a’zosining yelkasida o‘ttiz yetti million xalqning ishonchi turibdi. Vazifamiz qanchalik ulug‘vor, shu bilan birga, o‘ta mas’uliyatli ekanini Prezidentimiz qisqa va lo‘nda qilib tushuntirdi.

Mamlakatimiz rahbari boshchiligida hammamiz xalq xizmatkori ekanimiz uqtirildi. Maqsad aniq: "Faqat va faqat inson qadri. Xalqni rozi qilish".

Senat a’zolari bilan muloqotda Prezidentimiz O‘zbekistonning tinchlik va taraqqiyot strategiyasi nimalarni o‘z ichiga olishini birma-bir tushuntirib berdi.

Bu borada biz, senatorlardan nimalar talab etilishi ham ko‘rsatib o‘tildi: "Faqat kuchli iroda, birlik va hamjihatlik, qattiq mehnat bilangina yurtimizda tinchlik va taraqqiyotni ta’minlashga erisha olamiz".

Bugun kechagiday yashab bo‘lmasligi oyday ravshan. Senat a’zoligi – bu mansab yoki martaba emas. Mashaqqatli mehnat, xalq oldidagi qarzni uzish, odamlar ishonchiga munosib javob qaytarishdir.



O‘zbekiston katta maqsad va marralarni zabt etish uchun intilayotgan, jahon hamjamiyatida o‘z o‘rni va so‘ziga ega bo‘lgan mustaqil davlatdir. Mustaqil davlatning parlamenti ham o‘z so‘zi va o‘rniga ega bo‘lishi o‘z-o‘zidan tushunarli.

Rustam XOLMURODOV,
Oliy Majlis Senati a’zosi.

SAMARQANDDA “SMART AVTOBEKAT”LAR O‘RNATILADI

O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa’dullayev viloyatimiz yoshlari bilan uchrashdi. Tadbirda 150 nafarga yaqin yigit-qiz ishtirok etib, 30 dan ziyod ziyod yoshlar muammo va takliflarini o‘rtaga tashladi.



- Bugungi uchrashuvda bir nechta takliflar bilan agentlik direktoriga murojaat qildim, - deydi Samarqand shahrida yashovchi Abdulaziz Suyarov. – Avvalo, yoshlarni tadbirkorlikka tayyorlash, bunda zamonaviy uslublardan foydalanib o‘qitish bo‘yicha loyihalarni tashkil etish, o‘zim faoliyat olib borayotgan USAIDning Biznesni qo‘llab-quvvatlash loyihasi doirasida yosh tadbirkorlarga ko‘mak ko‘rsatish bo‘yicha takliflarni bildirdim. Xorijda o‘qib qaytgan yosh sifatida "Jadidlar" va "Uyg‘onish" to‘plamlarini chet tillariga o‘girib, chop etish lozimligini aytdim.

Bundan bir yil avvalgi ana shunday uchrashuvda yosh ijodkor Abbos Shodmonqulov tomonidan "Uyg‘onish" nomli kitob chop etilishi bo‘yicha moddiy yordam so‘ralgan edi. Bu murojaat inobatga olinib, samarqandlik iqtidorli yoshlarning ijodiy ishlari jamlangan to‘plam 500 nusxada chop etildi. Uchrashuvda kitobning bir nusxasi Alisher Sadullayevga sovg‘a qilindi.

- Ayni paytda "Smart o‘rindiq" loyihasi ustida ishlayapman, - deydi Samarqand tumanida yashovchi Bobur Astanov. – O‘rindiqda telefonlarni quvvatlash imkoniyati mavjud. Uning soyabonida esa chiroqlar o‘rnatilgan. Bu o‘rindiqlar qayta tiklanuvchi energiya manbai bilan ishlaydi. Xuddi shunday "Smart avtobekat"lar ham tayyorlanyapti. Bugun uchrashuvda ushbu loyihaning taqdimotini o‘tkazdim. Alisher Sa’dullayev bu tashabbusimni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashini aytdi. Agar 200 million so‘mlik grant mablag‘i ajratiladigan bo‘lsa, buning evaziga ayrim hududlarda "Smart o‘rindiq" va “Smart avtobekat”lar o‘rnatishni rejalashtirganmiz.

Uchrashuvda yo‘llangan har bir murojaat e’tiborga olinib, ijrosi ta’minlanishi uchun mas’ullar biriktirildi.

Jo‘shqin NARZULLAYEV,
Jasur SHOMURODOV (surat).

Kun mavzusi

Zarnews.uz telegram kanalida “Aholi uchun belgilangan imtiyozli narxda ko‘mir xarid qildingizmi?” savoli bilan so‘rovnoma o‘tkazgan edik. Ishtirokchilarning 35 foizi “Qayerdan va qay tartibda olishni bilmayman” degan javobni tanlagani e’tiborimizni tortdi.

Imtiyozli narxdagi ko‘mir aholiga qay tartibda beriladi?

Gap shundaki, bu yil aholiga imtiyozli narxda ko‘mir tarqatish tartibi biroz o‘zgargan. O‘tgan yillarda fuqarolar faqat mahalla raisining ma’lumotnomasi asosida tegishli omborlardan belgilangan miqdorda ko‘mir olib ketardi. Bu yildan e’tiboran esa tartib o‘zgargan.

"Samarqand" ko‘mir ombori mudiri Bobosher Qarshiyevning ma’lum qilishicha, ko‘mirga ehtiyoji bor xonadon vakili mahalla orqali maxsus platformaga elektron ariza tashlaydi. Ariza mahalliy hokimlik va undan so‘ng “O‘zbekko‘mir” AJ tomonidan elektron tizimda ko‘riladi. Ma’qullangach, fuqaro shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan ko‘mir tarqatish omboriga boradi. Ombor xodimi platformadan uning arizasi tasdiqlanganini ko‘rib, ko‘mir ajratib beradi.

Bu yilgi qish mavsumida viloyatimiz aholisiga 145,9 ming tonna ko‘mir imtiyozli narxlarda (bir tonna ko‘mir uchun to‘lov — 309 ming 800 so‘m) yetkazib berilishi rejalashtirilgan bo‘lib, bugungacha 81,7 ming tonna (55 foiz) ko‘mir keltirildi. Aholiga ko‘mir tarqatish uchun 8 ta ombor va 4 ta savdo shoxobchasidan foydalanilmoqda.

Samarqand shahridagi “Samarqand” omborida bo‘lganimizda aholi vakillarini ko‘rmadik. Bilishimizcha, haftaning uch kunida ko‘mir qabul qilinar, uch kunda tarqatilar ekan.

Past Darg‘om tumanidagi omborda ko‘mir tarqatish jarayoniga guvoh bo‘ldik.

Aslida, hammasi oddiy – elektron tarzda yo‘lga qo‘yilgan. Ammo fuqaroning arizasi biror tushunmovchilik sabab qabul qilinmagan yoki platformaga tushmagan bo‘lsa, uni joyida hal qilish mexanizmi yo‘q. Mas’ullarga ko‘ra, kamdan kam holatda mana shu masalada e’tiroz uchraydi. Ma’lum qilishlaricha, aholiga berilishi lozim bo‘lgan ko‘mirning talon-toroj qilinishining oldini olish uchun mazkur tizim yo‘lga qo‘yilgan. Ammo bu tizim yangiligi bois hozircha ayrim tushunmovchiliklar uchraydi.

Maqolani tayyorlarkanmiz, ayrim hududlarda fuqaro elektron ariza topshirish uchun borganida mahalla raisi “limit yo‘q”ligini aytib qaytarayotganini ma’lum qilishdi. "Ko‘mir ta’minot" MChJ viloyat filiali vakillari esa cheklov yo‘qligi, sharoitiga qarab mahalla raisi har bir xonadonga 2 tonnagacha ko‘mir berishi mumkinligini bildirdi.

O‘ylaymizki, mutasaddi tashkilotlar “limit” masalasida aniq fikr bildirishadi. Toki, fuqarolar sarson bo‘lib yurmasin.

Yuqorida so‘rovnomamizda ishtirokchilarning 35 foizi ko‘mir olish tartibidan bexabar ekanligi haqida yozdik. Demak, bu tartibdan aholini ham, mahalla raislarini ham to‘liq xabardor etish lozim. Muammo yuzaga kelganda yechim yo‘qligi ham ko‘rib chiqish lozim bo‘lgan masala. “O‘zbekko‘mir” AJning rasmiy saytida aholida savol va muammolar yuzaga kelganida murojaat qilishlari uchun maxsus bot ko‘rsatilgan. Biz sinov tariqasida ushbu botga murojaat qilib ko‘rdik. Afsuski, (21 noyabr sanasida) murojaatimizga hech qanday javob bo‘lmadi.

Yana bir muammo – bu ko‘mirning sifati. Bu holat bilan bog‘liq savollar ham, javoblar ham necha yilki bir xil: aholiga beriladigan ko‘mirning yarmi nega kukundan iborat? Qazish va yetkazish jarayonida kukun hosil bo‘lishi tabiiy holat. Ammo nega bozor narxida ko‘chadan xarid qilinadigan ko‘mirda bir hovuch ham kukun bo‘lmasligi haqidagi savolga hech kim javob bermaydi?

Anvar MUSTAFOQULOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).





FAROVONLIKKA XIZMAT QILADI

Konstitutsiya mamlakatning asosiy qonuni bo‘lib, davlat va jamiyat qurilishi, insonning huquq va majburiyatlarini o‘zida aks ettirgan oliy yuridik kuchga ega hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida Konstitutsiyani so‘zsiz va to‘liq amalga oshirish, ustuvor konstitutsiyaviy prinsiplarni yangi O‘zbekiston ulug‘vor g‘oyasiga hamohang tarzda ro‘yobga chiqarish, davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo‘lga qo‘yish, Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega ekanligidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlari faoliyatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va so‘zsiz qo‘llanilishi belgilab berildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilgan yangi, zamonaviy va muhim normalarning hayotga izchil tatbiq etilishi, xususan, sudlar tomonidan ana shu konstitutsiyaviy normalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda yangi davrni boshlab bermoqda.

Konstitutsiyamizning yangi normalarida asosiy e’tibor inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishiga qaratilganligi Yangi O‘zbekiston o‘zining ushbu sohalardagi xalqaro majburiyatlariga qat’iy sodiqligini namoyon etdi.

Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga jinoiy ta’qibga uchragan, hibsga olingan yoki qamoqda saqlanayotgan shaxsning adolatli sud orqali himoyalanishiga bo‘lgan huquqini ifoda etadigan xalqaro huquqning umume’tirof etilgan “Xabeas korpus” instituti va “Miranda qoidasi”ning mamlakatimiz qonunchiligida joriy etilishi va mustahkamlanishiga xizmat qiladigan qator normalar kiritildi. Bu normalar qonunlarimizda avvaldan mavjud bo‘lsa-da, konstitutsiyaviy qoida sifatida kiritilishi muhim ahamiyatga egadir. Shaxsni sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq ushlab turish mumkin emasligi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlab berishi shart emasligi va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkinligi, agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi, shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi haqidagi qoidalar aynan ushbu xalqaro hujjatlarning milliy qonunchiligimizda konstitutsiyaviy qoida sifatida joy olganini ko‘rsatadi.

Konstitutsiyaning siyosiy huquqlar belgilab berilgan 8-bobiga barcha fuqarolar O‘zbekiston Respublikasining davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egaligi, davlat xizmatini o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar qonun bilan belgilanishi haqidagi yangi norma kiritilganligi ham inson huquqlari himoyasining kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Konstitutsiyaning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar belgilab berilgan 9-bobiga kiritilgan 47-moddasiga ko‘ra, har kim uy-joyli bo‘lish huquqiga ega, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta’minlanadi.

Ushbu norma xususiy mulkning himoyasi konstitutsiya doirasida himoya qilinishini kafolatlash bilan bir qatorda, mazkur Konstitutsiya loyihasining 31-moddasida ko‘rsatilgan “Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega” ekanligi haqidagi qoidani mustahkamlagan va to‘ldirgan.

Yangi Konstitutsiyaning yana bir diqqatga sazovor qoidasi 67-moddada belgilab berilgan. Unga ko‘ra, davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta’minlaydi. Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o‘z faoliyati yo‘nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli. O‘zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag‘larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi.

Bu qoidalar xalq farovonligini va mamlakat iqdisodiyoti barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladigan, tadbirkorlar va ularning himoyasini ta’minlaydigan, davlat organlarining bu boradagi mas’uliyatini oshiradigan konstitutsiyaviy me’yorlardir.

Ta’kidlash joizki, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson huquq va erkinliklari himoyasini kafolatlaydigan, davlatning xalq oldidagi mas’uliyatini oshiradigan, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari milliy qonunchiligimizga konstitutsiyaviy qoida sifatida tatbiq qilingan Bosh Qomus bo‘lgani bilan yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligiga xizmat qiladi.

Olim HAYITOV,
viloyat sudi raisi.

Migratsiya

Xorijga ishga borish uchun birinchi talab – chet tilini bilish

Shu yilning 17-oktabr kuni davlatimiz rahbari tomonidan “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmon hamda “Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi.

Mazkur hujjatlar asosida xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonlari samaradorligini oshirish, sohada yagona vertikal boshqaruv tizimini joriy etish hamda mas’ul davlat organlarining aniq vazifalari va javobgarligi belgilandi. Shuningdek, chet mamlakatlarda tashkillashtirilgan holda mehnat qilishning institutsional asoslarini mustahkamlash, xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish istagidagi yurtdoshlarimiz huquqlarini himoya qilish va ularga qulaylik yaratish bo‘yicha aniq vazifalar qayd etildi.

– Prezidentimiz farmoni bilan Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyati tugatilib, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi tashkil etildi, – deydi Migratsiya agentligi Samarqand filiali rahbari Laziz Ibragimov. – Hukumat rahbari boshchiligidagi migratsiya bo‘yicha respublika komissiyasi tarkibi tasdiqlandi. Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasi agentlik migratsiya jamg‘armasi tashkil etildi. 2024–2026-yillarda tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar tasdiqlandi.

Bu o‘zgarish va yangiliklar fuqarolarga qanday yengillik, imkoniyat berishi ko‘pchilikni qiziqtiradi. Bu haqda shuni aytishim mumkinki, 2024-yil 1-noyabrdan boshlab xorijiy ish beruvchilar tomonidan taklif qilinayotgan ish o‘rinlari haqidagi barcha ma’lumotlar Migratsiya agentligining elektron platformasi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ochiq e’lon qilib boriladi.

Agentlikning elektron platformasida fuqarolarga o‘zining rezyumesini shakllantirish va joylashtirish hamda e’lon qilingan ish o‘rinlari bo‘yicha tanlovlarda erkin ishtirok etish imkoniyati yaratiladi.

Vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun tashkillashtirilgan holda rivojlangan mamlakatlarga chiqib ketayotgan fuqarolarga tijorat banklari tomonidan migratsiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 10 million so‘mgacha miqdorda Markaziy bankning asosiy stavkasidan to‘rt foiz bandga yuqori stavkada ikki yil muddatga mikrokreditlar ajratiladi.

Agentlikning hududiy filiallari tomonidan fuqarolarning xorijda ishga joylashish bilan bog‘liq, shu jumladan, “ishchi viza”ga oid hujjatlarini rasmiylashtirish bo‘yicha bepul konsalting xizmatlarini ko‘rsatish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.

Kasbga o‘qitish muassasalari agentligimiz tasarrufiga o‘tkazilgan holda ular negizida fuqarolarni (yoshlarni) chet tillariga o‘qitish va xorijiy davlatlarda ishlashga maqsadli tayyorlash markazining filiallari tashkil qilinadi.

Jumladan, viloyatimizdagi qurilish sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash markaziga shunday maqom berilmoqda. Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi esa xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo‘lgan fuqarolarni o‘qitish uchun agentlikka biriktirildi.

Ushbu muassasalarda 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab xalqaro ta’lim dasturlari asosidagi o‘quv kurslari tashkil etiladi









hamda ularning bitiruvchilariga xorijiy ish beruvchilar tomonidan tan olinadigan malaka sertifikatlari beriladi.

Xalqaro sertifikatlash tizimlari talablariga javob beradigan malakani baholash markazlari tashkil etiladi.

Vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga chiqib ketayotgan fuqarolarning shaxsiy mas’uliyatini oshirish maqsadida 2025-yil 1-yanvardan boshlab ularning xorijdagi qonuniy mehnat faoliyati davlat tomonidan rag‘batlantiriladi. Yurtimizga qaytib kelganida ularga o‘z biznesini boshlashi uchun yer uchastkalari va davlat mulki obyektlari ijaraga beriladi, kreditlar ajratiladi, uy-joy ipotekasi taqdim etiladi va ularning bandligi ta’minlanadi.

Filial rahbarining ta’kidlashicha, joriy yilda xorijiy davlatlarning 67 ta ish beruvchi va rekruting tashkilotlari tomonidan 171 marotaba tanlovlar o‘tkazilgan. Ularda samarqandlik 4238 nafar fuqaro qatnashib, 2150 nafari ishga tanlab olingan.

– Yil boshidan buyon viloyatimiz bo‘yicha 15 ming 331 nafar fuqaro xorijda ishga joylashdi, – deydi L.Ibragimov. – Jumladan, ularning 1609 nafari filial tomonidan tashkillashtirilgan tartibda, 191 nafari xususiy bandlik agentliklari tomonidan, 13 ming 331 nafari “online mahalla” elektron platformasida hokim yordamchilari tomonidan mustaqil ravishda xorijda ishga joylashdi. Shu paytgacha yurtdoshlarimiz asosan MDH davlatlariga ishga borgan bo‘lsa, endilikda migratsiya geografiyasi Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Koreya, Turkiya, Bolgariya, Latviya, Litva, Slovakiya, Sloveniya, Ruminiya singari Yevropa va arab mamlakatlari hisobiga kengayib bormoqda. Barcha xorijiy davlatlarga ishga borish uchun asosiy talab – o‘sha mamlakat tilini bilish, an’ana va qadriyatlari, qonunlaridan xabardor bo‘lish. So‘ngra qo‘lida ma’lum bir kasb-hunari bo‘lishi talab etiladi. Hatto shunday ish beruvchilar borki, talabgor qo‘lida ma’lum bir kasb bo‘yicha sertifikati bo‘lmasa-da belgilangan til bilish darajasiga ega bo‘lganlarni ham ishga qabul qilib, kasb-hunarga o‘rgatishga ham tayyor. Shuning uchun xorijda vaqtincha ishlash istagi bilan kelayotgan yurtdoshlarimizni avvalo, til o‘rgatish markazlariga yo‘naltiramiz. O‘zimizning kasb-hunarga o‘qitish markazlarimizda ham bir nechta chet tili o‘rgatilmoqda. Bu mashg‘ulotlarni mahalliy mutaxassislar bilan birga xorijlik hamkorlarimiz onlayn platformalar orqali olib bormoqda. Masalan, Koreyaning Qirol Sejong koreys tili markazi (KSIF) ushbu davlatga vaqtincha ishga bormoqchi bo‘lganlarga koreys tilini o‘rgatmoqda. Astoydil harakat qilgan, intilgan kishi 6 oyda xorijiy tilni o‘rganishi, muloqot qila olishi mumkin. Til bilgan kishi uchun esa xorijga ishga borish uchun asosiy eshik ochiladi.

Hozir bizga eng ko‘p vakansiya taklif etayotgan davlat Germaniya. Bu mamlakatda xizmat ko‘rsatish, tibbiyot, qurilish sohalarida ishchi-xizmatchilarga ehtiyoj katta. Bajariladigan ish, kasb-mashg‘ulotga qarab nemis tilini bilishning V-1, V-2 darajasi talab qilinadi. Kuni kecha belgilangan tanlovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan 23 nafar yurtdoshimiz tibbiyot yo‘nalishida ishlash uchun ushbu davlatga yuborildi. Yana talabgorlar bo‘lsa, yuborishimiz mumkin.

Yil boshidan Rossiya, Koreya, Yaponiya, Turkiyadagi 19 ta yirik ish beruvchilar va rekruting agentliklari bilan muzokaralar olib borilib, hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida agentlikka takliflar kiritilgandi. Shu paytgacha ularning 4 tasi bilan shartnoma tuzildi. Arab davlatlari bilan ham bugun migratsiya bo‘yicha muzokaralar olib borilib, kelishuvlarga erishganmiz.

Filial tomonidan xorijga vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketayotgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 1438 nafar fuqaro hayoti va sog‘lig‘i subsidiya hisobidan sug‘urta qilindi. 236 nafar fuqaroga kelgusida ish haqidan ushlab qolish sharti bilan ish beruvchi tomonidan mikroqarz berildi.

Bugungi kunda mehnat migratsiyasi bilan shug‘ullanadigan xususiy bandlik agentliklari ham ko‘payib bormoqda. Bu litsenziya talab qiladigan faoliyat hisoblanadi, ya’ni ma’lum bilan talablar bor. Ayni paytda respublikamiz bo‘yicha 16 ta, jumladan, Samarqandda 2 ta shunday subyekt faoliyat olib bormoqda. Kelgusida agentligimizning ma’lum bir yo‘nalishlari ularga o‘tkaziladi. Lekin litsenziyasi bo‘lmay turib, fuqarolarni xorijga ishga yuborish bilan shug‘ullanayotgan yoki odamlarni aldab, pul undirishga harakat qilayotgan soxta firmalar ham uchrayaptiki, yurtdoshlarimiz bundan ogoh bo‘lishlari lozim. Ularning aksariyati ijtimoiy tarmoqlarda xorijda juda katta miqdorda maosh to‘lanishi, til bilish yoki kasb-hunar bo‘yicha hech qanday talab yo‘qligini aytib e’lonlar berishi ortida ko‘plab yurtdoshlarimiz aldanib, chuv tushib qolmoqda. Fuqarolar bunday firibgarlar tuzog‘iga tushib qolmasligi uchun xorijga faqat qonuniy yo‘l bilan borishga harakat qilishlarini so‘raymiz.

G‘.HASANOV,
A.ISROILOV
(surat).

Bulung‘urda yangi bozor qachon quriladi?

Tuman markazida joylashgan dehqon bozori va uning atrofidagi ayrim holatlar nafaqat sotuvchi va xaridorlar uchun, balki bozor yonidagi yo‘lda harakatlanayotgan haydovchilar va piyodalarga ham noqulayliklar tug‘diryapti. Sotuvchilarning ba’zilari ko‘chada, ya’ni piyodalar yo‘lagida savdo qilyapti. Ularning ayrimlari hatto avtomobil yo‘lining bir qismini egallab olgan.

- Har kuni bozor chiptachisiga 10 ming so‘mdan beramiz, - deydi sotuvchilar. Ammo “Nega ko‘chada savdo qilyapsiz?”, degan savolga esa javob yo‘q!

- Bir paytlar bu sotuvchilar ham avtomobillarga, ham piyodalarga xalaqit berib, tumanning markaziy ko‘chalaridan birida savdo qilardi, - deydi bozorning qurilish bo‘yicha mutaxassisi Ismatilla Irisqulov. – Ularni dehqon bozori hududida savdo qilishga undadik. Bundan ko‘pchilik norozi bo‘ldi. Avvaliga Mingchinor massivi hududida yangi bozor qurilib, bozorimiz faoliyati to‘xtatilishi rejalashtirilgan edi. Shuning uchun sotuvchilarga vaqtincha ko‘chada bo‘lsa ham savdo qilib turishiga ruxsat berilgandi. Keyinchalik eski bozor ham faoliyatini davom etirishi mumkinligi aytildi. Endi ko‘chada savdo qilayotgan tadbirkorlar uchun munosib sharoit yaratish choralari ko‘rilyapti. Aslida bozorimizning katta bir ayvoni 1989-yilda qurilgan. Rastalar esa kam va ular katta joyni egallagan, bugungi zamon talabiga javob bermaydi.

Shunday bo‘lsa ham bozor hududidagi rastalarning deyarli yarmi bo‘sh turibdi. Mutaxassis esa ko‘chadagi sotuvchilar uchun bu joylar kamlik qilishini va tez kunda bozor yangi loyiha asosida qayta qurilishi rejalashtirilayotganini aytdi.

- Yangi loyiha taklifi tuman hokimligiga taqdim qilingan,-deydi u. - Agar shu taklif qabul qilinsa, dekabr oyida qurilish ishlari boshlanadi. Hozirda bozorning 437 ta savdo o‘rni va 92 ta turg‘un savdo nuqtasi mavjud bo‘lsa, yangi loyiha amalga oshirilgandan keyin bu ko‘rsatkich qariyb 2 baravarga oshadi. Ya’ni, 900 ga yaqin savdo o‘rni tashkil etilishi rejalashtirilgan.



Bozorda ayrim mahsulotlar sanitariya talablariga javob bermaydigan sharoitda sotilyapti.

- Bozorda ham, ko‘chada ham savdo qilayotgan ayrim tadbirkorlar usti yopiq holda sotilishi kerak bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlarini ochiq holda sotishadi, - deydi xaridorlardan biri. – Odamlar olaveradi. Haq-huquqini, tartib-qoidalarni bilishmaydi. Birgina misol, salatlar ochiq holda sotiladi. Sotuvchilar ham, oluvchilar ham ularning ustiga chang va u bilan birga turli mikroblar tushayotgani bilan ishi yo‘q.

Ayrim mahsulotlarning ishlab chiqarish sanasi va saqlash muddati ko‘rsatilmagan. Bunga bozorda mas’ul bo‘lgan laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlaridan hech birini topolmadik.

Bulung‘urda yangi dehqon bozori bunyod etilishi bo‘yicha kiritilgan loyiha taklifi qabul qilinadimi? Yangi bozor qachon qurilib, qachon ishga tushiriladi? Ungacha ko‘chadagi tartibsizlik shu holicha turaveradimi? Bozordagi laboratoriya va sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati xodimlari o‘z ishlariga qachon mas’uliyat bilan yondashadi?

To‘lqin SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Matbuot nashrlaridan 34 harfdan iborat o'rta turk umumiy alifbosi yaratilgani haqidagi xabarni o'qib, to'g'risini aytsam, quvonchim ichimga sig'may ketdi. Tilshunos mutaxassis sifatida til birlamchi ekanligi haqida o'ylab, hayajonim biroz bosildi. Axir, umumiy alifbo bo'lishi uchun hamma tushuna oladigan o'rta turk tili ham bo'lishi zarur-da. To'g'ri bir paytlar turk o'zbekni, o'zbek tatarni, uyg'ur qozoqni, qozoq esa qirg'izni qiynalmay tushungan davrlar ham bo'lgan. Nega desangiz, o'sha paytlarda alifbomiz bir xil bo'lib, yozuv orqali hamma bir-birini yaxshi anglagan. Aytishlaricha, janub va shimolda yashaydigan xitoy bir-birini og'zaki nutqda umuman tushunmas emish, ular yozuvlari tufayligina til topishar ekan. Albatta, bizning yozuvimiz iyeroglif emas, ammo alifbomiz mushtarak bo'lsa, qarindosh tillar qipchoq, qorluq, o'g'uz lahjalarimiz singari bir-birlariga tushunarli bo'lib qolar edi. Shu ma'noda, umumiy o'rta turk tiliga eski o'zbek (chig'atoy) tili asos qilib olinsa maqsadga muvofiq bo'lardi deb o'ylayman. Qolaversa, Buyuk Navoiy tilini umumiy til bo'lishiga qardoshlarimiz ham qarshi chiqmasalar kerak.

YAGONA TURKISTON ORZUSI



Xayolimda shu fikrlar kechar ekan, xalqimizning: "Ayrilganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer" degan dono maqoli yodimga tushadi. Darhaqiqat, odamlar jamoalarga birlashib yashashning afzalliklarini qadim-qadimdan bilishgan. Buyuk imperiyalarni barpo etgan tarixiy shaxslar ham o'z saltanatlarini azbaroyi ochko'zlik va qonxo'rliklari bois emas, balki markazlashgan qudratli davlatlarda xavfsiz va farovon hayotni ta'minlash niyatida harakat qilgan bo'lsalar ajab emas. Hayotdan oddiy bir misol keltiradigan bo'lsak, sobiq sho'ro imperiyasi xalqini qafasda saqlagan bo'lsa-da, uning xavfsizligini va oddiy ehtiyojlarini imkoniyat darajasida ta'minlab turardi. Ammo sobiq ittifoqdosh respublikalar ustidan qafas olingach, ularning boshiga avval pana-panada pisib yotgan balo-qazolar yopirildi. Hammadan avval millatchilik balosi bosh ko'tardi, keyin qimmatchilik, diniy fanatizm, undan keyin ayirmachilik va mana, nihoyat bugun buyuk davlatchilik shovinizmi, nainki sobiq imperiya, balki butun dunyo tinchligi va xavfsizligini xatar ostiga qo'ymoqda. O'zini gegemon deb hisoblayotgan yirik saltanatlarning katta o'yini oqibatida osoyishta yashayotgan kichik davlatlar va xalqlarning tinchligi buzilmoqda. O'zi shundoq ham mayda mamlakatlar uchun yashash oson bo'lmagan. Iqtisodiyot bo'yicha mutaxassis olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, aholi soni 300 million kishidan kam bo'lgan davlatlarni chinakam mustaqil deb bo'lmaydi. O'z-o'zini to'liq ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lgan yirik mamlakatlar esa barmoq bilan sanarli. Xitoy, Hindiston, AQSH hamda aholi soni ko'p bo'lgan bir necha mamlakatlargina hech kimga va hech narsaga zoriqmasdan mavjud bo'lishlari mumkin. Qolgan barcha 200 ga yaqin davlat hamisha u yoki bu narsaga muhtoj. Aytaylik, Yaponiyadek boy mamlakat ham xomashyo resurslari bo'yicha tashqi dunyoga qaram. Yoki Germaniya Federativ Respublikasining qudratli sanoati Rossiyaning gaziga bog'lanib qolgan edi. Rossiya haqida gapirib o'tirmasak ham bo'ladi. Ushbu mamlakat sanoati g'arb texnologiyalarisiz umuman faoliyat yuritolmaydi. Buni keyingi voqealar yaqqol ko'rsatib qo'ydi. Hozir u yerda avia-kosmik sanoat deyarli falaj holatiga tushib qoldi. Ayniqsa, samolyotsozlik va kosmik texnika ishlab chiqarilishi tanazzul holatida. Buning ustiga mamlakatdagi demografik vaziyat kundan kunga yomonlashib bormoqda. "Dard ustiga chipqon" deganlaridek, Ukrainada olib borilayotgan davomli urush mamlakat iqtisodiyotini tobora holdan toydirmoqda. Bularnimg barisiga sabab: sobiq imperiyaning parokanda bo'lib, dunyo bilan hamkorlik rishtalarining uzilishidir. Demak, bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, xalqlar va mamlakatlar uchun yagona maqbul yo'l – umumiy manfaatlar asosida birlashishdir. Sobiq sho'ro saltanatida xalqlar afsonaviy adolatli jamiyat – kommunizm qurish bayrog'i ostida birlashtirilgan edi. Hozirgi Yevropa Ittifoqi esa dastlab "Umumiy bozor" nomi bilan sof iqtisodiy manfaatlar asosida barpo etildi.

Bugungi kunda xalqaro maydonda yakkalanib qolgan Rossiya dunyo mamlakatlari bilan hamkorlikning o'zgacha yangi-yangi yo'llarini izlamoqda. Dastlab MDH, Bojxona ittifoqi, keyinchalik ta'sis etilgan Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqi, SHHT, BRIKS singari tashkilotlar shular jumlasidandir. Ammo ularning barchasi manfaatlar mushtarakligi bo'lmagach, mustahkam uyushmaga aylana olmadi. Endilikda Moskva dunyo mamlakatlariga "Global Janub" iqtisodiy-siyosiy loyihasini taklif qilmoqda. Bu loyihaning tub mazmuni avtoritar boshqaruvdagi davlatlarning demokratik dunyo bilan turli jabhalardagi raqobatiga asoslanadi. Ya'ni, Rossiya, Xitoy, Hindiston va Braziliya yetakchiligidagi Uchinchi dunyo mamlakatlari Kuchli yettilik davlatlari bilan raqobatga kirishib, AQSH gegemonligini sindirishlari ko'zda tutilgan. Bu boradagi dastlabki qadam sifatida dollar to'lov vositasidan voz kechish va shu orqali AQSH moliyaviy tizimini izdan chiqarish rejalangan. Shu bois Rossiyada bo'lib o'tgan brikschilarning navbatdagi anjumani mavzusi AQSH dollariga qarshi qaratilganidan xabardor bo'lgan uyushma a'zolari yig'ilishga moliya vaziri o'rinbosarlarining ishtiroki bilan cheklanishdi. Axir, ularning deyarli barchasi o'zaro moliyaviy munosabatlarini Amerika dollari orqali amalga oshiradi-da. Xo'sh, shunday ekan, BRIKSchilar dollarga qanaqasiga qarshi borishlari mumkin? Qolaversa, tarixan bir umr it-mushuk bo'lib kelayotgan eng yirik Osiyo davlatlari -- Xitoy bilan Hindiston bu borada bir yoqadan bosh chiqarishlariga hech aql bovar qilmaydi.

Ana shunday taloto'pli zamonda O'zbekiston kim bilan bo'lishi kerak, degan dolzarb savol, tabiiyki, hammamizni o'ylantiradi. Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan ko'pvektorli betaraflik siyosati davr sinovidan o'tib, o'zini oqlab kelmoqda. Biroq buyuk davlatlar tomonidan dunyoni yumshoq kuch yo'li bilan qayta taqsimlashga urinish kuchayib borayotgan bir davrda bu voqealarni qo'l qovushtirgan holda beparvo kuzatib o'tirish ham aqldan emas. Avvalgi maqolalarimizdan birida yozganimizdek, 500 yildan buyon betaraflik siyosatini yurg'izib kelayotgan neytral mamlakat Shveytsariya ham bugungi tahlikali zamonda Yevropa Ittifoqi va NATO tevaragida birlashish uchun harakat boshlab yubordi. Ana shunday sharoitda biz ham kim bilan birga bo'lishimiz haqida o'ylab olishimizga to'g'ri kelmoqda. Bizning fikrimizcha, bundagi eng oqilona yo'l – qon-qardosh xalqlarimiz mushtarak manfaatlar tevaragida o'zaro birlashishlari zarur. Xalqlarimizning keyingi davrdagi erishgan eng katta yutig'i – mustaqillikdir. Shu asosda eski va yangi mustaqil turkiy mamlakatlar uyushib, yagona geosiyosiy maydonga chiqishsa, bu Turkiston tarixi va taqdiriga ijobiy yo'nalish bergan bo'lardi. Tarixan, sun'iy ravishda parchalab tashlangan Markaziy Osiyo bugun birlashishga har qachongidan ko'ra muhtoj. Gazetxonlarimizning yodida bo'lsa, mustaqil mamlakatimizning birinchi prezidenti tomonidan "Turkiston – umumiy uyimiz" shiori ostida yangi mustaqil davlatlar birlashishga da'vat etilgan edi. Ammo o'shanda ayrim tashqi va ichki kuchlarning qarshiligi oqibatida ushbu loyiha ro'yobga chiqmay qolgandi. Bugungi kunda jahondagi turli kuchli davlatlar tomonidan yangi-yangi geosiyosiy rejalar qaytadan chizila boshlangan bir paytda boshqa buyuk davlatlarga qaram bo'lib qolmaslik uchun turkiy xalqlarning ham o'z siyosiy, iqtisodiy va madaniy loyihasi bo'lishini zamonning o'zi talab qilib turibdi. Zamon talablariga javob bermaslik esa kelajakda hal qilib bo'lmaydigan muqarrar mammolarni keltirib chiqaradi. Turkiston azaldan tevarak-atrofdagi yirik davlatlarning raqobat maydoni bo'lib kelgan. Sababi: biz ko'pincha bir-birimiz bilan kelishmay, turli imperiyalarning ta'sir tuzog'iga o'lja bo'lib kelganmiz. Bundan unumli foydalangan yirik imperiyalar asrlar davomida Turkistonni o'z tasarruflariga olish uchun davomli kurash olib borganlar.

O'tgan asrning 90-yillari o'rtalig'ida "Turkiston – umumiy uyimiz " shiori ostida Toshkentda atoqli yozuvchilar Chingiz Aytmatov va Odil Yoqubov rahbarligida yirik xalqaro anjuman chaqirildi. Bu g'oya asosida tashkiliy tuzilma, uning o'z banki va gazetasi ta'sis etildi. Biroq oradan ko'p o'tmay, yuqorida aytganimizdek, o'rtada chegaralar qayta mustahkamlanib, viza tartibi joriy etildi. Har bir respublika o'z harakat trayektoriyasi bo'ylab rivojlana boshladi.

Biroq bugungi tahlikali zamonda mintaqamiz mamlakatlari orasida birlashib yashashga yana katta ehtiyoj sezilmoqda. Dunyoda bir necha siyosiy qutblarning paydo bo'lishi turkiy xalqlarni ham bir markaz tevaragida uyushishga undamoqda. Bu ehtiyoj ayrim muxoliflar vahima qilayotganidek, "panturkizm" yoki "yangi turk imperiyachiligi" emas, balki kutilayotgan talotumlar xatari oldidagi zaruriy birlashuvdir.

Sho'ro davrida garchand, utopik soxta kommunistik g'oyalar asosida bo'lsa ham mintaqa xalqlari bir mushtarak maqsad tevaragida uyushgan edi. Oradagi chegaralar ham ramziy bo'lib, iqtisodiyotda o'ziga xos mehnat taqsimoti vujudga kelgandi. O'lkadagi harbiy okrug ham Turkiston deya nomlanib, bizga qadimiy tariximiz va taqdirimiz mushtarak ekanligini eslatib turardi.

Yuqorida aytganimizdek, qizil imperiyaning yemirilishi oqibatida Turkiston zaminidagi xalqlar ham o'z milliy chegaralari qobig'ida o'ralashib qoldilar. Kimdir Amerikaga, kimdir Yevropaga, kimdir Turkiyaga, yana kimdir Eronga umid ko'zlarini tikdi. Turli omillar sabab orada ziddiyat va konflikt nuqtalari paydo bo'ldi. Hatto chegara mojarolari yuzaga keldi. Bundan chuqur tashvishlangan oydin fikrli ziyolilar o'lka xalqlari orasidagi azaliy do'stlik va qardoshlik asosida yana Turkiston birligi g'oyasini kun tartibiga qo'ya boshladilar.

2014 – 2015-yillardagi jahon miqyosida sodir bo'lgan ma'lum tashvishli voqealardan so'ng turk dunyosida yana birlashuv harakatlari boshlandi. Turkiyaning Bodrum shahrida turkiy tilda so'zlashuvchi davlatlar rahbarlarining ikki kunlik sammiti bo'lib o'tdi. Turkiyanimg o'sha yillardagi prezidenti Abdulloh Gul mezbonlik qilgan oliymaqom uchrashuvda Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Ozarbayjon rahbarlari ishtirok etishdi. Prezidentlar aniq loyihalar doirasida siyosiy va iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishga kelishib oldilar. Sammitda shuningdek, mushtarak tarix kitobi va umumturk alifbosini yaratish masalalari ham muhokama etildi. Bu Turk dunyosi Hamkorlik Kengashining to'rtinchi sammiti edi. O'shanda O'zbekiston Respublikasi rahbariyati ayrim sabablarga ko'ra, bu anjumanda ishtirok eta olmadi. Shavkat Mirziyoyev prezident etib saylanganidan keyin bu borada ham jiddiy ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Eng avvalo, Markaziy Osiypdagi qo'shni respublikalar orasidagi ikki tomonlama munosabatlar yaxshilana bordi. Chegaralar ochilib, o'zaro viza tartibi bekor qilindi. 2019-yilda mamlakatimiz o'n yil o'tib, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashiga a'zo bo'ldi. Mamlakatimizning bu tashkilotga a'zo bo'lib qo'shilishi Kengash faoliyatiga yangi mazmun baxsh etdi.

Ha, haqiqatan ham, bugun Markaziy Osiyoda istiqomat qilayotgan barcha xalqlarga umumiy bir manfaat tevaragida birlashishga katta ehtiyoj sezilmoqda. Zero, shoir yozganidek:

Bo'laklarga bo'lib tashlangan makon -
Bugun zaruratsan Ota - Turkiston!

Birgina mintaqamizda emas, balki dunyodagi barcha turkiy elatlar bir yoqadan bosh chiqarib, uyushganlarida edi, hech qachon dunyodagi boshqa yirik davlatlarga qaram bo'lib qolmasdilar. Aytish mumkinki, bu borada dastlabki qutlug' qadamlar qo'yilmoqda.

Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi.

Xalqaro hayot

Iste'molchining huquqi hamma joyda kafolatlanishi zarur

Samarqand shahrida Shanxay hamkorlik tashkiloti va Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tashkilotlarining maslahat yig'ilishlari o'tkazildi.
Tadbirda shuningdek, mazkur xalqaro tashkilotlar kotibiyatlari, Xalqaro iste'molchilar tashkiloti (Consumer International)ga a'zo davlatlar vakillari, mamlakatimiz parlamenti hamda tegishli vazirlik va idoralar mas'ullari ishtirok etdi.

Anjumanning ochilish marosimida Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi raisi o'rinbosari Asadulla Qayumov, Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi raisi Jahongir Sarimsoqov tadbirdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalar haqida so'z yuritdi.

Xalqaro iste'molchilar tashkiloti (Consumer International) bosh direktori Helen Loran videomurojaat orqali maslahat yig'ilishlari ishiga muvaffaqiyat tiladi.

Shundan so'ng Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo va ishtirokchi davlatlarda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar rahbarlarining Maslahat yig'ilishi o'tkazildi.

– Mazkur nufuzli tadbir birinchi marta va O'zbekistonda o'tkazilayotgani bejiz emas, – deydi ShHT bosh kotibi maslahatchisi Shoxruh Bobonov. – Keyingi yillarda mamlakatimizda ushbu yo'nalishda qonunchilik takomillashib, jamiyatning davlat va xalq hayotidagi ahamiyati oshdi. Shu va boshqa ilg'or tajribalarni o'zaro bo'lishish nafaqat iste'molchilar huquqini himoya qilish, balki hamkorlikning ko'p qirrali munosabatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadbirda tashkilotlar o'rtasida xalqaro, mintaqaviy va milliy bitimlar tuzilishi, kelishuv va memorandumlar imzolanishi rejalashtirilgan.

Yig'ilishda ShHTga a'zo davlatlar iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tashkilotlari rahbarlari o'z tajribalari bilan o'rtoqlashdi hamda takliflarini bildirdi.

Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tashkilotlari rahbarlarining maslahat yig'ilishda O'zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston davlatlari vakillari ishtirok etib, hamkorlikning kelgusi istiqbollari yuzasidan fikrlashib oldilar.

A.BAROTOV.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

ISSIQLIK TA'MINOTI XIZMATLARI NARXI O'ZGARMOQDA!

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2024-yil 1-iyuldagi VI-100-58-7-0-K/24-sonli qaroriga asosan, Samarqand shahri va Nurobod tumanida issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan aholiga ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun quyidagi narxlar belgilanmoqda:

Xizmatlar turi	O'lchov birligi	Taklif etilayotgan narx (ta'rif, so'mda)
Samarqand shahri		
Aholi uchun markaziy isitish (bir kunlik, QQS bilan)	1 m² Gkall = 0,001642 x 130 834 = 214,829428 so'm	
Aholi uchun issiq suv ta'minoti (1 ta odam uchun 1 kunlik, QQS bilan)	0,007333 x 130 834 = 959,405722 so'm	
Aholi uchun issiq suv ta'minoti hisoblagichi bo'yicha (1 metr kub uchun)	metr kub	7 197
Aholi uchun ta'rif (1 Gkal uchun)	Gkal	130 834
Nurobod tumani		
Aholi uchun markaziy isitish (bir kunlik, QQS bilan)	1 m² Gkall = 0,001224 x 367 338 = 449,621712 so'm	
Aholi uchun issiq suv ta'minoti (1 ta odam uchun 1 kunlik, QQS bilan)	0,007036 x 367 338 = 2584,590168 so'm	
Aholi uchun issiq suv ta'minoti hisoblagichi bo'yicha (1 metr kub uchun)	metr kub	20 208
Aholi uchun ta'rif (1 Gkal uchun)	Gkal	367 338

"ISSIQLIK TA'MINOTI" DUK.

DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Berdiyeva Mukaramga (2021-yil 7-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 76-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Nasirov Shokirjon Alimovichga (2022-yil 14-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Ergashev Shodmonkulga (2020-yil 12-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 10-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Zakirov Axmadga (2014-yil 8-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Radjabov Shuxrat Usmonovichga (2011-yil 18-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Kobilov Davronga (2022-yil 25-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Djurayeva Kubaroga (2019-yil 24-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Sadiyev Utkur Xikmatilloyevichga (2023-yil 16-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Xolov Abduraxmon Amonovichga (2024-yil 18-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Mardiyeva Yaxshigulga (2022-yil 15-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

* * *

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Valixodjayev Farzod Botirovich notarial idorasida marhum Xaydarov Amonga (2005-yil 8-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Valixodjayev Farzod Botirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.

* * *

BEKOR QILINADI

Past Darg'om tumanidagi "SAMARQAND METALL PRODUCTION" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 302999986) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

QO‘SHQO‘RG‘ONDAGI OTISHMA



NAMOZ BOTIR *haqida yangi ma’lumotlar*

Ilgari ham (2007, 2017, 2023-yillarda) mashhur xalq qahramoni Namoz botir haqida «Oqdaryo ovozi» va «Zarafshon» gazetalarida bir qancha turkum maqolalar e’lon qilgan edik. Biroq 2021-yil yanvar oyidan buyon O‘zbekiston Milliy arxivi va O‘zbekiston Milliy kutubxonasining nodir qo‘lyozmalar bo‘limida bo‘lib, mavzuga oid manbalarni mukammal o‘rganish jarayonida Oqdaryo tumanida o‘sib-ulg‘aygan tarixiy shaxs Namoz Pirimqul o‘g‘lining qisqa va jangovar hayoti haqida ko‘plab ma’lumotlar to‘plashga muvaffaq bo‘ldim. Mustamlakachi chor hukumati askarlari bilan bo‘lib o‘tgan Qo‘shqo‘rg‘on qishlog‘idagi qonli to‘qnashuv ham o‘ziga xos ana shunday unutilmas voqealardan biridir.

1906-yil dekabr oyining oxirlari. Havoning qorli , qirovli kunlari edi. Namoz yigitlari bilan Dahbed volosti yaqinidagi Asanovot qishlog‘iga ketma-ket ikki marta kelganligi haqidagi mish-mishlar tarqaldi. Joydevona volostining Saydan qishlog‘i oqsoqoli Mo‘minbek Yo‘ldoshevning yuragiga g‘ulg‘ula tushdi. Chunki u avval ham Namoz yigitlarini hukumat qo‘shinlari bilan ta’qib etishda bir necha bor ishtirok etgan, biroq Namoz ularni chuv tushirib ketgan edi.

Joydevona volostining Beshkal qishlog‘idan bo‘lgan Mo‘minbek o‘zining volostnoylik mansabiga o‘tirish orzusini amalga oshirish uchun ko‘pdan beri Namozni hukumat qo‘shinlariga tutib berishda ular bilan yaqin aloqada bo‘lgan.

1906-yil 24-dekabr kuni u aholidan yig‘ilgan pullarni g‘aznaga topshirish uchun Samarqandga yo‘l oldi. Yo‘l-yo‘lakay Marg‘ilontepa qishlog‘i yaqinidagi yo‘lda *(Dahbeddan 1,5 kilometr shimoliy g‘arb tomonda, hozirgi Mustaqillik qishlog‘i yaqinidagi tepalik atrofi)* Mo‘minbek oqsoqol ikki nafar otliq yigitlarni ko‘rib qoldi. Otliqlarning xatti-harakatini zimdan kuzatgan oqsoqol ularni «Namoz va uning odamlari», deya taxmin qildi. Oqsoqol otliqlar e’tiborini o‘ziga jalb qilishdan cho‘chib, tezda ulardan uzoqlashdi. Ko‘p o‘tmay, Samarqandga yetib borgan Mo‘minbek ko‘rganlari haqida hukumat idorasiga xabar berdi. Shu kuniyoq kazaklarning ikki otryadi Dahbed va Urgut sud ijrochilari boshchiligida aytilgan joyga yuborildi. Yo‘lga chiqqan otryadlar kechqurun Dahbedda tunab, ertalab yo‘lga chiqdilar. Ular yo‘l-yo‘lakay Namoz va uning odamlariga boshpana berishi mumkin bo‘lgan qishloqlarni oralab o‘tdilar. Xorunj (ofitser) Kazansev va Dahbed volosti pristavi kapitan Oleynikov boshchiligidagi o‘n bir nafar jazo otryadi kazaklari shu tariqa iz olib, Dahbeddan 5-6 vyorst masofa *(taxmiman 6 kilometr)* uzoqlikda joylashgan Qo‘shqo‘rg‘on qishlog‘iga yaqinlashdilar. Ertalab soat 8 edi chamasi. Kapitan Oleynikov yo‘l bo‘yidagi bir darvozada ustiga yuk ortilgan otni ko‘rib qoldi. Shubhalangan kapitan otini shu tomonga tezlatdi va orqada qolgan kazaklarni tezroq harakat qilishga buyurdi. Kapitan adashmagan edi. Ular darvozaga yaqinlashganda kapitan shu ko‘chaning oxirrog‘ida qishloqni ikki qismga ajratadigan xiyobonda yugurib ketayotgan bir odamni ko‘rib qoldi. Kapitan Oleynikov bu odamni kuzatuvchi qarovul bo‘lsa kerak, deb taxmin qildi. Keyinchalik bu taxmin ham to‘g‘ri bo‘lib chiqdi. Bu odam Uzoq Xo‘jayorov bo‘lib, Namoz va uning yigitlarini xavf-xatardan ogohlantirish uchun qo‘yilgan qarovul edi. Bu paytda Namoz va uning odamlari Hamroqul degan kishining mehmonxonasida choy ichib o‘tirishardi. To‘satdan kazaklar kelib qolganini ko‘rgan qarovul qo‘rqqanidan qo‘shni Oynaqo‘rg‘on qishlog‘i tomon qochib qolayotgan edi *(hozir bu qishloq tugatilib ketgan).* Otdan tushib, darvoza tomon 60 qadamcha yugurib borgan kapitan Oleynikov hovlida bir nechta mahalliy odamlarni ko‘rdi. Ulardan kichkina bo‘ylisi darvozaning chap tomonidagi devorga yopishib olib “3” markali miltiqdan ikki marta o‘q uzdi. O‘qlar kapitanning boshi uzra uchib o‘tdi. Shu payt kapitan o‘ziga tanish bo‘lgan Namozning odami Sherniyoz Xudoynazarovni ko‘rdi. U darvoza oldiga yugurib kelib, kapitanning ortidan kelayotgan ikki kazakka qarata ov miltig‘i – “Berdanka”dan ikki marotaba o‘q uzdi *(keyinchalik bu darvozadan to‘rtta “3” markali miltiq gilzasi va 2 ta ov miltig‘i topildi).* Otilgan o‘qlardan kazak Xarchevning shlyapasi teshilib, Kulaginning shlyapasi boshidan uchib ketdi.

Qo‘shqo‘rg‘on qishlog‘i tor xiyobon bilan ajralgan ikki qismdan iborat bo‘lib, sakkiz burchakli uzun qo‘rg‘on ichidagi kattagina maydonning har joy-har joyida ikki -uchtadan turli hajmdagi uy va kulbalar hamda qo‘rg‘onning asosiy qismi hisoblangan ikkinchi tomonidan katta-kichik hajmdagi bir-biriga ulanib ketgan 12 ta xonadon mavjud edi.

Kapitan Oleynikov kazaklarga muyulishdagi uylarni egallashni buyurib, o‘zi uch kazak bilan birga ichkarida binolari bo‘lgan darvoza tomon harakatlandi. Namoz va uning yigitlarini aylanib o‘tib, uydagilarni iskanjaga olishni rejalashtirgan kapitan va uning askarlari kulbalar teshigidan qasoskorlar tomonidan to‘xtovsiz o‘q otish bilan kutib olindi.

Shu vaqtning o‘zida muyulishdagi kulbalardan ham kazaklarga qarshi tinimsiz o‘q otilayotgan edi. Shu payt kapitanning keyingi muyulishda yelkasiga miltiq osib, ot choptirib ketayotgan chavandozga ko‘zi tushdi. Kapitan unga qarata uch marta o‘q uzdi. Chavandoz oti bilan birga yerga yiqildi. Biroq u o‘rnidan turib, tezda piyoda qocha boshladi. Kapitan Oleynikov unga qarata yana bir nechta o‘q uzdi. Namozning binolar ichidagi yigitlari bilan ham kuchli otishma davom etayotganligi sababli qochayotgan kishini ta’qib etishning iloji yo‘q edi. Otishma to‘xtovsiz davom etayotganligidan qancha odam o‘q uzayotganligini bilib bo‘lmasdi. Bunday vaziyatda Namozning qurshovdan chiqib ketishini bilgan kapitan Mo‘minbek Yo‘ldoshevni chaqirib, qo‘shimcha kuch va o‘q-dori yuborishini tayinlab, Samarqandga jo‘natdi.

Kunduzgi soat 12 ga borib, Dahbed volosti boshqaruvchisi mulla Bo‘lak Allamurodov o‘zining bir qancha qurolli yigitlari bilan to‘qnashuv joyiga yetib keldi. Yo‘ldoshev Samarqandga ketayotib, Zarafshon bo‘yida ularni ham xabardor qilishga ulgurgan edi. Allamurodov qasoskorlar joylashib olgan binolardagi aholini, shu jumladan, bolalar va ayollarni tashqariga chiqib, xavfsiz joyga o‘tishlarini buyurdi. O‘q ovozlari biroz pasaygach, Allamurodov o‘zi bilgan va birma-bir tekshirilgan 20 nafar mahalliy aholini voqea joyidan boshqa yerga o‘tkazdi. Shu payt ofitser Kazansev boshchiligidagi kazaklar to‘rtta hovlini Namozning odamlaridan tozalashganligini aytishdi. Allamurodov qishloq chetidagi darvozali hovliga kirib, kulba ichidan Namozning yigiti Ochil Mullajonov *(Jonxo‘rozov)*ni olib chiqdi. Ochil uni o‘ldirmasliklarini so‘rab, buyurilgan joyga o‘z ixtiyori bilan borishni aytgan. Ochil Mullajonov u yerdan olib chiqilganda uning qo‘lida qurol yo‘q edi. Vaholanki, u joylashgan kulbadan miltiq otilib turgan. Uning qurolini qayergadir yashirishga ulgurgani aniq edi.

Kazaklar yaqin atrofdagi kulbalarning tomlariga chiqib, otishmani davom ettirdilar. Kazaklarga ham turli kulbalar, og‘ilxona va boshqa joylardan javob o‘qlari otib turildi. Og‘ilxonalarning biridan bir nechta o‘ldirilgan otlar orasidan boshiga o‘q tegib halok bo‘lgan Juman Bolibekovning jasadi topildi. Shu joydan topilgan qopning ichidan 5-6 ta to‘pponcha, bir nechta qurol-aslaha hamda katta miqdordagi “3” markali miltiq patronlari bor edi. Birin-ketin taslim bo‘lib chiqqan *qasoskorlarda* esa bor yo‘g‘i 30 dona o‘q bor edi. Qo‘lga olinganlar 5 nafar bo‘lib, bular Xudoyberdi O‘tashev, Qurbonboy Otniyozov, Qarshiboy Sultonov, Shoamin To‘xtamishev va Avazqul Oqmirzayev bo‘lib, oxirgi ikkalasi yarador edi. Taslim bo‘lishdan avval kazaklar og‘ilxonaga somon tashlab o‘t qo‘ygach, ular yupqa devorlarni ag‘darib, ikkinchi va uchinchi og‘il va kulbalarga o‘tib ketishavergan. Yettinchi hovliga o‘tib joylashgan Namozning yigitlari tomda turib, uni buzishga harakat qilgan kazaklarni o‘qqa tutadi. Kazaklar tezda tomdan tushadi va eshik oldiga kelgan kazaklardan biri Korchagin: “Namoz! Endi qocha olmaysan, taslim bo‘l!”, deb baqiradi va ichkariga kirib Namozni tutib chiqmoqchi bo‘ladi. Shunda eshik sal ochilib, Namoz shashti baland bu kazakni peshonasidan otib tashlaydi. Kazak Korchagin yiqilib, shu zahoti o‘ladi. Shundan so‘ng eshik

Tariximizni o‘rganamiz

yana sal ochilib, ichkaridan bir qo‘l chiqadi va Korchaginning yerda yotgan miltig‘ini uy ichiga tortib oladi. Korchagin o‘ldirilganidan so‘ng birorta ham kazak eshikka yaqinlasha olmaydi.

Shundan keyin og‘ilxonadan uchta “3” markali miltiq, ov miltig‘i va to‘pponchalardan to‘xtovsiz o‘q otilib turdi. Kunduzi soat uchga borib ofitser Jigulevsev o‘ttiz nafar kazak bilan shahardan yetib keldi. Yordamchi kuchlarning ba’zilari qo‘rg‘on atrofini o‘rab olishga, ba’zilari esa otishma davom etayotgan qaynoq nuqtaga tashlandi. Kelganlardan biri mahalliy ovchilardan bo‘lib, shu otishma ostida kazak Korchaginning jasadini sudrab olib chiqib ketdi *(bu ishni ovchi kapitan Oleynikov yoki volostnoy Allamurodov topshirig‘iga ko‘ra amalga oshiradi).*

Bu paytga kelib, Namoz va uning qarshilik ko‘rsatayotgan 2-3 nafar yigiti qolgan edi, xolos. Hukumat qo‘shinlaridan esa yetib kelgan qo‘shimcha kuchlar bilan birgalikda oltmish nafardan ortiq qurollangan askar bor edi. Kuchlar sira teng emasdi.

Harbiy boshliqlar kengashib, Namoz va uning yigitlarini ochiq jang bilan qo‘lga olishning imkoni yo‘q, degan xulosaga kelishdi. Shundan so‘ng kazaklar og‘ilxonaning eshigi oldiga somon tashlab, o‘t qo‘yishni boshladi. Bir nechta kazaklar tomga chiqib, tomni buzishdi. Maqsadi tomdan ichkariga yoqilgan somon tashlash edi. Biroq, tomning ichidan yana kazaklarga qarata o‘q uzish boshlandi. Kazaklar darhol tomni tark etishga majbur bo‘ldi. Bu ishning natijasiz ekanligini ko‘rgan Oleynikov yana og‘ilxona eshigi oldiga va ichkariga yondirilgan somon tashlata boshladi. Namoz va uning yigitlarini yana taslim bo‘lishga da’vat etishdi. Volostnoy Allamurodovning tashabbusi bilan chaqirilgan bir nechta qishloq oqsoqollari ham tomga chiqib, Namoz va uning yigitlariga taslim bo‘lishni aytishdi. Ammo ularning bu takliflariga Namoz va uning yigitlari kuchaytirilgan o‘q ovozlari bilan javob qaytarishdi. Keyin og‘ilxona eshigi bir necha soniyaga ochilib, yana yopildi va ichkaridan dahshatli baqirish eshitildi. Keyinchalik ma’lum bo‘lishicha, ichkaridagilar bilan birga bo‘lgan uy egasi Tamom Eshiyev kazaklarga eshikni ochib bermoqchi bo‘lganligi uchun Namoz tomonidan otib tashlangan.

Namoz va uning yigitlari uchun hayot-mamot jangi ketayotgandi. Bunday paytda oqsoqollarning taklifiga ham, uy egasining xiyonatiga ham murosa qilishning imkoni yo‘q edi.

Tashlangan somonlar yonib, tutun ichkariga urgach, ichkaridan otilayotgan o‘q ovozlari bir muddat to‘xtadi. Ofitser Kazansev kazak Korchaginning o‘limi haqida Samarqand shahriga xabar yubordi va kun bo‘yi hech narsa yemagan, charchagan kazaklar hamda ularning otlarini almashtirishni boshliqlardan so‘radi. Shu bilan birga, piroksilinli portlatuvchi mushak-bombalar yuborishni iltimos qildi. Yong‘in butun og‘ilxona va kulbalar bo‘ylab tarqaldi. Otishma tunda kamroq kuch bilan davom etdi. Ertalab soat uch atrofida zobit Livkin o‘zi bilan bomba-mushaklar va 20 nafar kazak askarini olib yetib keldi. Ertalab soat beshlarda kazaklar oxirgi og‘ilxona devorlari ortidan chiqqan mahalliy yigitni qo‘lga olishdi. Uni zobitlar oldiga olib borib so‘roq qilishganda, u Namozning safdoshi Sherniyoz Xudoynazarov ekanligi ma’lum bo‘ldi. Uning gapiga qaraganda kechki payt u tashqariga chiqmoqchi bo‘lgan *(ehtimol, u taslim bo‘lmoqchi bo‘lgandir)* Sherniyoz ortga qaytmagach, Namoz uni otib, yarador qilgan. U hushidan ketgan va endigina o‘ziga kelganligini ma’lum qilgan. Sherniyozning so‘zlariga ko‘ra, Namoz oxirgi og‘ilxona yaqinidagi omborxona ostida bo‘lgan. Shunda Kazansev omborni portlatib yuborishga qaror qildi. Biroq omborxonada bug‘doy bo‘lganligi sababli u yerdan avval bug‘doy tashib chiqarildi. So‘ngra omborxona portlatib yuborildi.

Omborxona ko‘zdan kechirilganda, Namozning uch dona miltig‘i, bir nechta to‘pponcha, 100 dona “3” markali miltiq patronlari topildi. Portlatilgan ombor vayronalari qazib ko‘rilganda pol ostidan Korchaginning miltig‘i, “Brauning” miltig‘i va to‘pponcha, Namozga tegishli deb hisoblangan bolta topilgan. Lekin vayronalar ichida Namozning na tirigi, na o‘ligi topilmagan. Otishma bo‘lgan barcha joylardan topilgan o‘qotar qurollarning barchasidan o‘q uzilganligi aniqlandi. Namoz va uning yigitlari jami 500 ga yaqin o‘q uzganligi ma’lum bo‘ldi...

Shunday qilib, asirga olinganlar Ochil Mullajonov, Xudoyberdi O‘tashev, Qurbonboy Otniyozov, Qarshiboy Sultonov, Shoamin To‘xtamishev, Avazqul Oqmirzayev, Sherniyoz Xudoynazarov hamda yashirinishga ulgurgan Namoz Pirimqulovlar qurolli qarshilik ko‘rsatganlikda ayblanib, ularga “qoidabuzarlik to‘g‘risida”gi nizomning 262, 263-moddalari va 1459-moddaning 2-qismi bo‘yicha ayblov kiritildi.

Mazkur maqolaning elektron shaklini ushbu QR-kod orqali o‘qishingiz mumkin.

Ayblanuvchilar o‘z aybiga iqror bo‘lmagan.

O‘ktam IKROMOV,
tadqiqotchi, tarixchi.

Afsus

Savodxonlik tushunchasi dunyo davlatlarida turlicha belgilanadi. YUNESKOning 1958-yil Parijda bo‘lib o‘tgan 10-sessiyasida barcha mamlakatlarda savodlilik tushunchasini birxillashtirish maqsadida yozuvni tushunib o‘qiy oladigan va o‘zining kundalik hayotini yozma ravishda imloviy xatolarsiz bayon qiladigan kishilarni savodli hisoblashga kelishilgan.

Savodsizlik sari...



Ilm-fan rivojlanayotgan, axborot texnologiyalari takomillashib, inson tafakkurining imkoniyati yuksalib borayotgan ayni kunlarda o‘z yechimini kutayotgan masalalar ham talaygina. Ko‘cha yozuvlari, e’lonlar va peshlavhalarda yo‘l qo‘yilayotgan xatolar shunday muammolarning biridir.

Hozirgi kunda imloviy, uslubiy xatolar bilan yozilgan turli mazmundagi e’lon va reklamalarni har qadamda uchratishimiz mumkin. Masalan, do‘konlardagi “Haridingiz uchun raxmat!” degan yozuvga deyarli e’tibor bermay o‘tib ketamiz. Yoki e’londagi “Boq satiladi” so‘zlarini o‘qir ekansiz, dastlab gap nima haqda ketayotganligini anglab olishga ham qiynalasiz. Ancha mulohaza qilib, bu “jumboq”ning, ya’ni bog‘ning sotilishini anglab yetganingizdan so‘ng kulishni ham yig‘lashni ham bilmay qolasiz. Ovqatlanish shoxobchalaridagi peshlavhalarda ham “mazzali non, shurbo, samsa, xonim" kabi yozuvlarga o‘rganib qoldik. Davlat tasrrufidagi markaziy shifoxonalardan birida “Xafsizlik hizmati” deya katta-katta harflar bilan yozib qo‘yilganiga izoh topolmadim.

Bir qarashda bu kamchiliklar ahamiyatsizdek tuyuladi, hatto, ziyoli insonlar ham bunga ko‘nikib qolayotgandek go‘yo.

Ushbu muammoning ikkinchi tomonida o‘sib kelayotgan yosh avlodning savodi masalasi turganini anglamayapmiz. Yorilmagan yaraning vaqt o‘tib azob berishini 2000-yillarning boshlarida Shimoliy Koreyada aholi mana shu reklamalardagi xatoliklar tufayli yoppasiga savodsizlikka yuz tutgani bilan izohlasak o‘rinli bo‘ladi.

Nafaqat peshtaxtalardagi yozuvlarda, balki badiiy adabiyotlar, gazeta va jurnallar, ijtimoiy tarmoqda ham bunday kamchiliklarning uchrashi odamning ta’bini xira qiladi. Atoqli yozuvchilarimizning kirill alifbosida yozilgan asarlarini lotin grafikasida chop etishda ham juda ko‘p imloviy xatoliklar uchrashi bunga yana bir dalildir.

Dunyoni har kim o‘z qarichi bilan o‘lchaydi, deganlaridek, bundan ham muhim muammolar borligini takidlayotganlar bu masalaning nechog‘li dolzarb ekanligini chuqur o‘ylab ko‘rsalar, foydadan xoli bo‘lmasdi.

Adib O‘tkir Hoshimov yozganidek, "Ona tili uchun jon kuydirmaslik – o‘z onasini unutish bilan teng".

Dildora SHERMATOVA,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti qoshidagi litsey o‘qituvchisi.

Gazetaning navbatdagi soni 2024-yil 27-noyabr, chorshanba kuni chop etiladi.

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 413 nusxada chop etildi. Buyurtma 616. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E’LONLAR: (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.
Navbatchi: F.RO‘ZIBOYEV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda